



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**


**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Diloram Babajanova</b> O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI.....	5
<b>2. Ойбек Абдимўминов</b> БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	11
<b>3. Sarvar Axmedov</b> XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI.....	18
<b>4. Nafosat Botirova</b> ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO XALQLARI JANG OLIB BORISH USLUBLARI.....	23
<b>5. Дмитрий Епифанов</b> АНАЛИЗ ДЕНЕЖНОЙ И НАЛОГОВОЙ РЕФОРМ БУХАРСКОГО ПРАВИТЕЛЯ АБДУЛЛА-ХАНА II ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ХАНСТВА.....	28
<b>6. Istora Jo‘rayeva</b> O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI.....	31
<b>7. Xamdani Matyakubov</b> TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA).....	35
<b>8. Sahodat Murtazova, Otabek Ziyodov</b> O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	43
<b>9. Sevara Pulatova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI SAFARBAR ETISH JARAYONLARI.....	48
<b>10. Yoqubjon Tayronov</b> TURKISTONDA MAHALLIIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (Milliy matbuot materiallari asosida).....	53
<b>11. Dildora Tursunova</b> HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH.....	59
<b>12. Солижон Қудратов</b> СИРДАРЁ ҲАВЗАЛАРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ.....	63




UDK:0:9(58)338:297.930.(584.4)

**Xamdani Xamidjanovich Matyakubov,**  
Urganch davlat universiteti, Tarix kafedrasida dotsenti, PhD.  
*E-mail:* hamdamtarix@gmail.com

**TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR  
(XORAZM VOHASI MISOLIDIDA)**

**For citation:** Xamdani Kh. Matyakubov. ECONOMY, CULTURE AND SOCIAL RELATIONS IN THE STONE AGE (ON THE EXAMPLE OF THE KHOREZM OASIS). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 2, pp.35-42

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14978648>

**ANNOTATSIYA**

Xo‘jalik sohalarini amalga oshirish, ularga xizmat qilish va olingan mahsulotga ishlov berish uchun bir qator xonaki ishlab chiqarish tarmoqlarini, ya‘ni hunarmandchilikni tashkillashtirish talab etilgan. Bu soha jamoalarning bir qator ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilib, mehnat qurollarini yasash, tosh, suyak va yog‘ochga ishlov berish usullari ancha takomillashtirildi hamda kulolchilik va to‘quvchilik kashf etildi. Tosh davrida xo‘jalik sohasi, madaniyat va ijtimoiy aloqalar Xorazm vohasi – Kaltaminor madaniyati misolida ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** xo‘jalik-madaniy tiplari, tosh davri, mezolit davri, neolit davri, mehnat qurollari, xo‘jalik turmush tarsi, tabiiy-geografik sharoit, urf-odatlar, marosimlar.

---

**Хамдам Хамиджанович Матьякубов,**  
Ургенчский государственный университет,  
доцент кафедры истории, к.и.н.  
*E-mail:* hamdamtarix@gmail.com

**ЭКОНОМИКА, КУЛЬТУРА И СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В КАМЕННОМ  
ВЕКЕ (НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА)**

**АННОТАЦИЯ**

Для реализации отраслей народного хозяйства, их обслуживания и переработки получаемой продукции необходимо было организовать ряд отраслей домашнего производства — ремесел. Эта отрасль была направлена на удовлетворение ряда потребностей общин, и методы изготовления инструментов, обработки камня, кости и дерева были значительно усовершенствованы, а также были изобретены гончарное дело и ткачество. Экономическая сфера, культура и социальные отношения в каменном веке рассматриваются на примере Хорезмского оазиса – культуры Калтаминор.

**Ключевые слова:** хозяйственно-культурные типы, каменный век, мезолит, неолит, орудия труда, хозяйственный уклад жизни, природно-географические условия, обычаи, обряды.

**Khamdam Kh. Matyakubov,**  
Associate Professor, Department of History,  
Urgench State University, PhD.  
*E-mail:* hamdamtarix@gmail.com

## **ECONOMY, CULTURE AND SOCIAL RELATIONS IN THE STONE AGE (ON THE EXAMPLE OF THE KHOREZM OASIS)**

### **ABSTRACT**

In order to implement the branches of the national economy, their maintenance and processing of the products obtained, it was necessary to organize a number of branches of home production - crafts. This branch was aimed at satisfying a number of community needs, and the methods of making tools, processing stone, bone and wood were significantly improved, and pottery and weaving were invented. The economic sphere, culture and social relations in the Stone Age are considered on the example of the Khorezm oasis - the Kaltaminor culture.

**Key words:** economic and cultural types, Stone Age, Mesolithic, Neolithic, tools, economic way of life, natural and geographical conditions, customs, rituals.

### **Kirish.**

Xo'jalik-madaniy tiplar tarixini, shu jumladan, Kaltaminor madaniyati misolida o'rganish, dolzarb ahamiyatga ega. Tabiat va insonning o'zaro ta'siri, qadimda urug'-qabila guruhlarining joylashishi, ularning o'zaro hududiy munosabatlari va aloqalari, an'anaviy xo'jalik sohalari, turmush tarzi va madaniyat hislatlarini tadqiq etishda, o'z muhimligi va zaruriyati bilan ajralib turadi.

Neolit davri Xorazm vohasida urug'chilik jamoalarining nisbatan o'troqlashib yashaganligi, atrofdagi yovvoyi hayvonlar soni va suv havzalarida baliqlar hamda suv ustida suzib yuruvchi qushlarning serobliligi va ildiz mevali o'simliklarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan.

Yuqori darajada taraqqiy topgan ixtisoslashgan ovchilik nafaqat dasht qabilalari hayotida, balki ilk dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan urug'chilik jamoalari orasida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Misol uchun, Joytun madaniyati manzilgohlaridan topilgan hayvonlar suyaklarining tahliliga ko'ra, ovchilik yordamida qo'lga kiritilgan go'sht mahsuloti jamoalarning oziqlantirilishida 25 foizni tashkil etib, mahalliy ovchilar kaltaminorliklar singari jayron, qulon, to'ng'iz va yovvoyi dasht qo'ylarini ovlashgan [3].

### **Tahlillar va natijalar.**

Xo'jalik sohalari amalga oshirish, ularga xizmat qilish va olingan mahsulotga ishlov berish uchun bir qator xonaki ishlab chiqarish tarmoqlarini, ya'ni hunarmandchilikni tashkillashtirish talab etilgan. Bu soha jamoalarning bir qator ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilib, mehnat qurollarini yasash, tosh, suyak va yog'ochga ishlov berish usullari ancha takomillashtirildi hamda kulolchilik va to'quvchilik kashf etildi.

Neolit davri hunar kasblarini o'rganish, ilgari tarixiy bosqichlarga nisbatan moddiy ishlab chiqarishning murakkablashishini ko'rsatib, mazkur jarayon shu ishlab chiqarishning yangicha tuzilishi va mahsulotning taqsimlanish jihatlarini ochib berdi [8, c. 72].

Kaltaminor madaniyatiga oid mehnat qurollari, sopol idishlari va bezak buyumlariga oid ma'lumotlar S.P. Tolstov, A.V. Vinogradov va M.A. Itinaning ishlarida yoritilgan [14]. Keltirilgan dalillarga ko'ra, kaltaminorliklar o'z qurollarini chaqmoqtosh va suyaklardan yasashgan. Shu ishlab chiqarish jarayonida yog'ochdan qurol yasalganligining ehtimoli yuqori. Mehnat qurollari-teshkichlar, qirg'ichlar, nayza va o'q uchlari, pichoq plastinalari va tosh boltalar turli maqsadlar uchun ishlatilgan [16, c. 29].

Loydan tasma uslubida yasalgan idishlar, gulxanda pishirilgan. Keyin ularning sirti qizil va sariq bo'yoq bilan bo'yalgan. Pishirishdan oldin loy idishlarga geometrik bezaklar chizib ishlangan. Ularni archa shoxiga o'xshash rasmlar, to'liqinsimon chiziqlar va o'yma naqshlar tashkil etadi [15, b. 76-77]. Huddi shunday sopol idishlar Qizilqum yodgorliklaridan va Quyi Zarafshon neolit davri makonlaridan topilgan [4, c. 94-95].

Kulolchilikning ixtiro qilinishi katta madaniy yutuq bo'lib, tadqiqotchilarning yozishicha, sopol idishlar go'shtni suvda qaynatib pishirish va suyuq ovqatlar tayyorlash imkonini berdi, ayniqsa qaynatib pishirilgan taom oson hazm bo'ladi va inson organizmiga foydali ta'sir ko'rsatadi [5, b. 93].

Dasht sharoitidagi ovchi, baliqchi va termachilar jamiyatida, sopol idishlar ovqatni qaynatib pishirish qatorida, chuchuk ichimlik suvni hamda yovvoyi tabiatda terib olingan iste'molga yaroqli o'simlik mahsulotni saqlash imkonini berdi. Shuningdek, tolalar va jundan kiyim-kechaklar tayyorlash, charmdan poyabzal tikish va qamishdan savat, bo'yra to'qish keng tarqala boshlandi.

Mezolit va neolit davrlarida Markaziy Osiyoning dasht hududlarida yashagan urug'doshlik jamoalari orasida tosh, suyak va chig'anoqlardan taqinchoqlar-munchoq va tumorlarni yasash keng tarqalgan edi. Bunday taqinchoqlar Sharqiy Kaspiybo'yi, Ustyurt, Janubiy Orolbo'yi, Qizilqum va Zarafshonning quyi qismida joylashgan yodgorliklarida aniqlangan.

Masalan, Kaspiy dengizning sharqiy qirg'og'idagi Quba-Sengir degan o'ziga xos so'ngi mezolit va neolit davri taqinchoqlar ustaxonasidan 900 ga yaqin, dengiz chig'anoqlaridan ishlangan cho'ziq gardish shaklidagi munchoqlar va ularni yasash uchun yig'ib olingan, hali ishlov berilmagan chig'anoqlar topilgan [10, c. 64]. Bunday munchoqlar dengizdan biroz uzoqlashgan Yuqori Uzboy neolit davri yodgorliklarida va Quyi Zarafshon vohasi makonlarida qo'lga kiritilgan [4, c. 42].

Shuningdek, Kaltaminor madaniyatiga oid Ichki Qizilqumdagi Besh – buloq va Lavlakon makonlaridan feruza va marmarli oniks kabi mineral tosh jinslaridan tayyorlangan munchoqlar topilgan. Feruza toshkonlari Bukantog', Tamditog' va Sulton Uvays tog'larida joylashgan bo'lib, feruza yarim qimmatbaxoli mineral sifatida turli tarixiy bosqichlarda zargarlik sohasida keng ishlatilgan [18, c. 43-45].

A.V. Vinogradovning yozishicha, bezaklarni ishlab chiqarish, mehnat qurollarini yasash va loydan idishlarni tayyorlashga nisbatan, makonlarni o'zida kichikroq alohida maydonda joylashgan, shu bilan birga, makondan tashqarida mavsumiy ustaxonalar bo'lgan [18, c. 44].

Neolit davrida mehnat qurollarini, bezaklar va taqinchoqlarni yasashda silliqlash, parmalash, arralash va o'yish usullari ancha takomillashib rivoj topganligi ma'lum. Bizningcha, kaltaminorliklarning turmush tarzida va xo'jalik sohasida hunarmandchilikning ahamiyati nafaqat oshgan, balki uning ixtisoslashgan tarmoqlari kengayib borgan desak, yanglish bo'lmaydi.

Bundan, ushbu masalaga daxldor bo'lgan ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, toshdan va suyakdan an'anaviy ishlangan mehnat qurollari, shuningdek, yog'och va qamishdan kulbalarni bunyod etish, ya'ni turar joylarni qurish ishlari, yuqorida qayd etilgan kulolchilik, jun, o'simlik tolasi va charmdan kiyim-kechak hamda poyabzal tikish ko'nikmalari, bezaklar, taqinchoqlar yasalishi, bo'yra, savat yasash va boshqa mashg'ulotlar dalolat beradi.

Huddi shunday ixtisoslik chaqmoqtosh va turli xil mineral-tosh jinslarini qazib olish va ularga dastlabki ishlov berish yoki konchilik ishlar tarmog'ida rivojlangan. Bu borada Sulton Uvays tizmasining sharqiy qismida topib tekshirilgan neolit davri Bo'rli koni e'tiborga molik. U Markaziy Osiyoda eng katta qadimgi konlardan biri bo'lib, uning yonida ustaxonaning izlari aniqlangan [17, c. 134].

Kaltaminorliklar hayotida baliqchilik, ovchilik va termachilik xo'jaligi nisbatan mustahkam kun kechirish manbayiga aylanib, urug'chilik jamoalarining o'troq turmush tarziga asos bo'lgan. Ba'zan, qushlar va dasht toshbaqalarining tuxumlarini, toshbaqalar o'zlarini yig'ish hamda oziqlanishida iste'molga yaroqli o'simliklarning ildizlarini kovlab olish mavsumlarida, makonlardagi kulbalarning bo'sh bo'lib qolishini taxmin qilish mumkin. Dashtlardagi ov sohasi, ovchilar tomonidan yovvoyi hayvonlar izlaridan yurib, joylarni o'zlashtirish va mavsumiy ko'chib

yurishni talab etgan. Lekin barcha jamoa a'zolari, yetarli darajada o'ljani qo'lga kiritganidan so'ng, o'zlarining makonlariga qaytib kelishi imkoniga ega bo'lishgan.

Etnografik ma'lumotlar guvohlik berishicha, xo'jalik tarmoqlarini yurgizish uchun foydalanilgan yerlar, qabilani tashkil etgan urug' jamoalari o'rtasida taqsimlangan. Bu yerda, ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida (baliqchilik, ovchilik va termachilik vazifalarini amalga oshirishga mo'ljallangan hududlar) urug'dosh oilalari vakillarining jamoatchilik mulki edi. Yegulik-go'sht, baliq va o'simlik mahsulotlari, umumiy ish va manfaat birlashgan urug'chilik guruhi ichida jamoatchilik tamoyillariga asoslanib taqsimlangan [11, c. 94-95].

Kaltaminor madaniyati va umuman, neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik-madaniy tipga oid qabilalarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganilishiga S.P.Tolstov Ya.G'ulomov, O'.I.Islomov, A.V.Vinogradov, G.F.Korobkova, M.D.Jurakulov, Ye.B.Bijanov va N.O.Xolmatovlar katta hissa qo'shganlar.

S.P.Tolstov Jonbos 4 makonidan topilgan arxeologik materiallarini etnografik ma'lumotlari bilan solishtirib, Xorazm vohasidagi neolit davri ijtimoiy masalalarini dastlab yoritgan. Kaltaminorliklar yoshi katta ona atrofiga jipslashgan ona urug'i jamoalarini tashkil etganligi va bunday birlashgan jamoalar alohida juft oilalardan iborat bo'lganligi qayd etilgan [14, c. 59-60]. O'sha paytlarda, XIX-asrning 2-yarmida etnologiya fani sohasida vujudga kelgan matriarxat tuzumi to'g'risida ta'limotning g'oyalari ilmiy adabiyotlarida keng qo'llanilib, ularning ayrim jihatlari taxrir qilingan va qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilgan [9, c. 82-83]. Bunga tosh davri arxeologik yodgorliklarida olib borilgan tadqiqotlar sabab bo'lgan. Tosh davri so'nggi bosqichi-neolitda mavjud qarashlarga ko'ra, ixtisoslashgan ovchilar-baliqchilar jamiyatida, ayollarning mavqei urug'chilik jamoasida yuqori bo'lib, ular xonaki hunarmandchilikning yangi sohalari-kulolchilik va to'qimachilik bilan shug'ullanishgan, jamoa mulki, oziq-ovqat maxsulotlarini g'amlab, saqlash va taqsimlash jarayonini nazorat qilishgan hamda xonaki xo'jaligini boshqarib turganlar [12, c. 135-137]. Ayollar, o'zlari tug'ilgan va voyaga yetgan muayyan urug' jamoasiga mansub bo'lgan. Ona tomonidan qon-qarindoshlar vakillaridan tashkil topgan jamoalaridan nikoh munosabatlari man etilganligi tufayli, erkaklar qo'shni urug'doshlik jamoalarining a'zolari bo'lib, o'z xotinlarining urug'i turarjoylarida ularning ijtimoiy, mulki huquqlari cheklangan edi [12, c. 135-137].

Bunga o'xshash qarashlar, dunyoning turli burchaklarida yashagan va ibtidoiy xo'jalik-madaniy an'analarini, turmush tarzi va urf-odatlarini saqlab kelgan "orqada qolgan" qabilalarning moddiy va manaviy madaniyatini, XVIII asrdan boshlab, Yevropa tadqiqotchilarining o'rganilishi natijasida fanga tadbiiq etilgan. Shu sababli, XIX asrga kelib, Yevropa mamlakatlarida ilmiy antropologiya jamiyatlari tuzilib, keyingi bosqichlarda "ijtimoiy" yoki "madaniy" antropologiya nomli yo'nalishlar paydo bo'ldi [2, b. 12].

S.P.Tolstov ham kaltaminorliklarning madaniyatini qayta tiklashda Janubiy Osiyo, Okeaniya va Amerikada yashagan ba'zi qabilalarning etnografik jihatlarini hisobga olgan (baliqchilik va ovchilik o'troq xo'jaligi, qo'lda ishlangan sopol idishlari, nayza, o'q-yoy kabi qurollari) [15, b. 77-78].

Shuni ta'kidlash joizki, etnografik materiallar ibtidoiy tarixning muhim jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ammo, ulardan uzoq o'tmish kishilar tarixi va madaniyatini qayta tiklash uchun foydalanishda, tarixiy-madaniy jarayonlarning turli tabiiy-geografik sharoitda rivojlanishiga, o'ziga xos xususiyatlari va an'analariga diqqatini jalb etish muhim ahamiyatga ega.

A.V.Vinogradov Kaltaminor madaniyati tarixining rekonstruksiya-sida, birinchidan, neolit davrining tabiiy-geografik sharoiti, iqlim va tabiiy landshaftni, suv va ashyoviy ta'minot darajasini hamda fauna va flora dunyosining qadimiy holatini o'rganish, ikkinchidan, to'plangan arxeologik materiallarini sinchiklab tadqiq etishni qayd etadi [17, c. 138-139].

Bunday yondashuvni qo'llab - quvvatlash mumkin. Chunki qo'lga kiritilgan arxeologik materiallar majmualarida talaygina o'tmish izlari, ashyoviy manbalar mavjud. Ularni turarjoylar, turli xil qurollar, buyumlar va bezaklardan tashqari, hayvonlar, parrandalar va baliqlarning suyaklari, yog'och, o'simliklar, don qoldiqlari va boshloqlar tashkil etganligi ma'lum. Shular orqali neolit davri makonlarida xo'jalik doirasi – ov va baliqchilik o'ljasini bo'laklarga ajratish, tosh,

suyak va yog‘ochga ishlov berish, kullochilik bilan shug‘ullanish joylari aniqlangan. Shuningdek, kaltaminorliklarning turarjoylari – kulbalarining, katta-kichikligini, egallagan umumiy maydoni va kulbalar ichida alohida maishiy uchoqlar izlarini hisobga olgan holda, neolit davri turar joylarida, o‘rtacha 50-60 dan 100-120 kishiga qadar juft oilalaridan iborat jamoalar a‘zolari yashaganligi to‘g‘risida masala ilgari surilgan [17, c. 155].

Bu ma‘lumotlar fanga tatbiq etilib, ular qadimgi Xorazm tarixining muvofiq bo‘lgan davri mavzusini yoritishda qo‘llaniladi [7].

Xorazm vohasining ibtidoiy davr aholisi ijtimoiy muammolarini tavsiflashda turli muhim jihatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, lekin vohadagi eng qadimiy jamiyatning ijtimoiy tuzilishi masalalari yetarlicha yoritilmagan. XXI asrning birinchi choragida chop etilgan ishlarda ham bu masalaga tegishli qisqacha ma‘lumotlar berilgan. Masalan, kaltaminorlik jamoalarini umumiy mulk, mehnat qurollari, turarjoylari va turmush tarzi birlashtirganligi, urug‘ a‘zolarining yoshi va jinsi bo‘yicha mehnat taqsimoti talablariga rioya qilinganligi kabi xulosalar, shular jumlasidandir.

Fikrimizcha, matriarxat davridagi urug‘doshlik jamoalarining iqtisodiy hayotida yoshga qarab jamoada ijtimoiy o‘ringa ega bo‘lish, shubhasiz, ahamiyatli omil edi. Shu bilan birga, jamoatchilikga oid foydali mehnat faoliyati jarayonlarida katta yoshdagi ayollar va erkaklar, o‘spirinlar va keksa kishilarning jamoa faravonligiga qo‘shilgan hissasi, ularning imkoniyatlariga ko‘ra, turlicha bo‘lganligini tahmin qilish mumkin. Ayollarning jamoadagi ijtimoiy mavqei nimalar bilan belgilanganligi to‘g‘risida yuqorida aytib o‘tildi. Erkaklar konlardan tosh jinslarini qazib olish, tosh va suyakda mehnat qurollarini yasash, turarjoylarini qurish va hayvonlarni ovlashda o‘z ko‘nikmalari, bilimlari va tajribasi bilan ajralib turgan. Shunga qaramay, ushbu tadqiqotning oldingi sahifalarida ta‘kidlanganidek, matriarxat davrida erkakning jamoadagi ahamiyatini belgilashda, uning o‘z xotini mansub bo‘lgan urug‘i turar joylarda yashagan, boshqa urug‘ga mansub “kelgindi odam” hisoblash odati salbiy ta‘sir qilganligi, tabiiy bir hol bo‘lgan.

Keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, ovchilik baliqchilikning jamoalarida, turli xo‘jalik ishlarini tashkillashtirish, olib borish va boshqarib turishda erkaklarni o‘rni ayollarga nisbatan eng ahamiyatli edi degan xulosaga kelish mumkin.

Xususan, tashkillashtirish tartibga solish va amalga oshirish kabi vazifalar, urug‘chilik tuzumida amaliy jihatdan foydali ijtimoiy boshqaruvni yuzaga keltiradi.

Mazkur boshqaruv ishlab chiqarishni tashkillashtirish va qo‘lga kiritilgan yegulik mahsulotni taqsimlash bilan cheklanmagan. Uning funksiyalari jamoadagi o‘zaro aloqalarni tartibga solish va tashqi munosabatlarni nazorat qilish, jamoaning e‘tiqod marosimlarni ado etish baxsli masalalarini hal qilish va boshqalar hisobiga hayotiy muhim maqsadni tashkil etgan [1, b. 146-152].

Xorazm vohasi misolida, yetarlicha ochib berilmagan yana bir muammo, ibtidoiy e‘tiqodlar tarixi bilan bogliqdir. Odatda, bu mavzuni o‘rganish uchun ma‘lumotlar, shu jumladan arxeologik materiallarning kamligi uqtirilib, tosh davri e‘tiqodlarini qabilalarni turmush tarzi mashg‘ulotlari va tabiatdagi hodisalar belgilab bergan deb xulosa chiqarilgan, shuningdek, etnografik ma‘lumotlarni jalb etilgan holda, Xorazmda saqlanib kelgan e‘tiqodlarning izlariga doir ayrim muhim jihatlar taxlil qilingan [6, b. 57, 157-158].

Dasht ovchilar-baliqchi qabilalarning urf-odatlarini va e‘tiqodlarni o‘rganishda qadimgi mozor qo‘rg‘onlaridan topilgan ashyoviy manbalar nihoyatda muhimdir. Ilk neolit davriga oid ikkita qabr dastlab Kaspiy dengizining sharqiy qismida joylashgan Qayli g‘or makoni atrofida qazib ochilgan. Bu yerda marhumlar orqaga yotqizib, oddiy chuqurlarga dafn etilgan va ularning ustiga maydalangan qizil rangli mineral-oxra sepilgan. Qabrlarda dengiz chig‘anoqlaridan ishlangan doira shaklidagi va silindirsimon munchoqlar olingan, ularning ba‘zilari marxumning bosh suyagi ustida va yonida joylashib, bosh kiyimning” bezak qoldiqlari bo‘lgan [10, c. 65].

Kaltaminor madaniyatiga mansub dafn yodgorliklari Amudaryoning Sariqamishbo‘yi deltasidagi Tumekkichijik qadimiy qabristonida o‘rganilgan. O‘sha paytlarda Amudaryo Uzboy o‘zani orqali Kaspiy dengiziga quyilgan. Shu tariqa, daryo bo‘ylab, ovchilar hayvonlarning izidan yurishgan, ularning makonlari yonida qabristonlar ham bo‘gan. Shulardan biri Tumekkichijikda 30 ta qabr o‘rganilgan. Qayli dafn marosimlari singari odam skletlari ustida qizil ohra izlari

aniqlangan, dengiz chig'anoqlar hamda suyak va toshdan ishlangan munchoqlar topilgan. Ularning ko'plari marhumlarning kiyimlarini bezatishgan. Shuningdek, mayda yirtqich hayvonlar va to'ng'izning qoziq tishlaridan ishlangan tumorlar mavjud. Ularning yuqori qismida parmalash uslubi bilan ip o'tkazish uchun teshik ochilgan [19, c. 500].

Keltirilgan malumotlar, xususan qabrlar ichiga va marhumlarga sochilgan qizil oxra, neolit davri odamlarning qarashlariga ko'ra, ushbu maydalangan qizil rangdagi mineral, narigi dunyoda inson qoniga aylanib, marhumlarni jonlashtirishiga va hayotni davom etishiga xizmat qiladi, ya'ni dafn marosimlarida ohradan hayotiy kuch sifatida foydalanilganligini ko'rsatib beradi. Agarda munchoqlar odamlarning ust-boshini bezatgan bo'lsa, tumorlar esa yovuz kuchlardan asrovchi taqinchoq hisoblangan. Qabrlardan topilgan chaqmoqtosh qurollari, sopol idishlar parchalari va hayvonlar suyaklari – xom yoki pishirilgan go'sht taomlarning qoldiqlari bo'lishlari mumkin. Bularning barchasi marhumlarning narigi dunyoga o'tishi yo'lida kerak bo'ladi degan tasavvurlardan kelib chiqqanligi va urf-odatga aylanib borganligidan darak berishi mumkin.

Ibtidoiy e'tiqodlar, an'anaviy urf-odatlar sifatida barqaror rivojlanib, g'ayritabiiy kuchlar, arvohlar to'g'risidagi tasavvurlar va ajdodlar ruhiga doir qarashlar, asrlar mobaynida avloddan avlodga yetib kelgan.

Shu mavzuda tegishli Xorazm vohasida dala etnografik tadqiqotlarni keng miqiyosda olib borgan G.P.Snesarev ibtidoiy tarixga daxldor hodisa bo'lgan vohadagi totemizm, fetishizm, magiya – sexrgarlik izlarining u yoki bu shaklda aks etilishi jihatlarini o'rgangan. Natijada, fetishizm tasavvurlar bilan bog'liq, "yomon ko'zdan", asrash maqsadida tumorlarni yasash, shuningdek, achchiq qalampir, piyoz, sarimsoq hamda xaltacha - tumordagi muz, ayrim o'tkir metall buyumlar va turar joyga kirish eshiklar ustiga osib qo'yilgan sopol idishlar yovuz kuchlardan asrovchi tumorlar hisoblanishi holatlari aniqlangan. Shu bilan birga, tosh davrida paydo bo'lgan insonni o'rab olgan tabiiy muhitda jonlar, ruhlarning mavjudligiga ishonish-animizm ibtidoiy e'tiqodning izlariga oid ma'lumotlar yig'ilib, e'lon qilingan [13, c. 26-30].

Bu e'tiqodlar turli tarixiy davrlar sharoitida, o'zgarishlarga uchrab, yangicha mazmuniga ega bo'lgan hamda izsiz yo'qolib ketmagan, shu tariqa, etnografiya materiallari eng qadimgi e'tiqodlarni qayta tiklashda muhim manba hisoblanadi.

### **Xulosa.**

Umuman olganda, tosh davri Xorazm vohasidagi turli tarixiy bosqichlarida yashagan urug'doshlik jamoalari uchun tabiatda tayyor yegulik mahsulotni o'zlashtirib, qo'lga kiritish eng muhim maqsad edi. Shu sababli, ular tabiatda oziq-ovqat mahsulotlariga boy joylarni, suv manbalari va mehnat qurollarini yasashga yaroqli tosh konlarini o'zlashtirishga xarakat qilishgan. Ovchilik, termachilik va baliqchilik sohalarida xo'jalik ishlari bevosita tabiiy sharoit bilan bog'liq bo'lib, shu muhitga mehnat vositalari yordamida oziqlanish mahsuloti o'zlashtirilgan va unga ishlov berilgan.

Neolit davriga kelib, alohida juft oilalaridan iborat urug'chilik jamoalari umumiy turar joyda-kulbalarda yashagan. Ularning kundalik hayotida oziq ovqatning qo'lga kiritish bilan birga uy ro'zg'orining maishiy mashg'ulotlari, turli mehnat qurollari va buyumlarni yasash, kulolchilik sahasi katta ahamiyat kasb etgan. Urug'oshlik jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini tartibga solish, xo'jalik ishlarini tashkillashtirish va amalga oshirish jarayonida ijtimoiy boshqaruv muhim o'rin egallagan.

Xo'jalik ishlari qatorida jamoa a'zolarini umumiy turmush tarzi, urf-odatlari va diniy e'tiqodlari birlashtirgan. Tosh davri e'tiqodlarini o'rab olgan tabiiy muhitda ro'y bergan xodisalar belgilab bergan. Totemizm va animizm e'tiqodlari, tabiat kuchlariga va olovga sig'inish an'analari mifologik qarashlarning paydo bo'lishi asos bo'lgan.

### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент: "Lesson press", 2019. – Б. 146-152.(Abdullaev U.I. The history of the primitive

- communal system and the first statehood in Central Asia. – Tashkent: “Lesson press”, 2019. – P. 146-152)
2. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Тошкент, 2007. – Б.12.(Ashirov A., Atadzhanov Sh. Ethnology. – Tashkent, 2007. – P.12)
  3. Бердыев О.К. Чагаллы-Депе-новый памятник неолитической джейтунской культуры // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1966. – С. 26-27; Массон В.М. Поселение Джейтун... С. 87-88. (Berdyev O.K. Chagally-Depe - a new monument of the Neolithic Dzheitun culture // Material culture of the peoples of Central Asia and Kazakhstan. - M., 1966. - P. 26-27; Masson V.M. The settlement of Dzheitun ... P. 87-88)
  4. Гулямов Я.Г. Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура...С. 42. (Gulyamov Ya.G., Islamov U., Askarov A. Primitive culture... P. 42.)
  5. Кабилов Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1990. – Б. 93.(Kabirov J., Sagdullaev A. Archeology of Central Asia. – Tashkent: "Teacher", 1990. – P. 93)
  6. Курбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2015. – Б. 57, 157-158. (Kurbanova D.Sh. Spiritual culture of the Khorezm oasis in the ancient and early medieval centuries. – Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan, 2015. – P. 57, 157-158.)
  7. Кыдрниязов М.Ш. ва бошқ. История цивилизации Хорезма... С. 44-48.; Ўзбекистон тарихи XI жилд. (Хоразм тарихи)...Б. 25-31.; Сагдуллаев А.С. ва бошқ. Марказий Осиёда тарихий-маданий...Б.24. (Kydrniyazov M.Sh. and others. History of the civilization of Khorezm... P. 44-48.; Uzbekiston tarihi 11 zild. (Khorezm tarihi)... P. 25-31.; Sagdullaev A.S. and others. Historical and cultural history in Central Asia ... P.24.)
  8. Массон В.М. Экономика и социальный строй ...С. 72. (Masson V.M. Economy and social structure ... P. 72.)
  9. Матриархат // Свод этнографических понятий и терминов // Ответственные редакторы А.И.Першиц и Д.Трайде. – М.: “Наука”, 1986. – С. 82-83. (Matriarchy // Collection of ethnographic concepts and terms // Editors-in-chief A.I. Pershits and D. Tride. – М.: “Nauka”, 1986. – P. 82-83.)
  10. Окладников А.П. Верхнепалеолитическое и мезолитическое время // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: “Наука”, 1966. – С. 64. (Okladnikov A.P. Upper Paleolithic and Mesolithic times // Central Asia in the Stone and Bronze Age. – М. – L.: “Nauka”, 1966. – P. 64.)
  11. Першиц А.И. Монгайт А.А., Алексеев В.П. История первобытного общества ...С.94-95 (Pershits AI Mongait AA, Alekseev VP History of primitive society ... P.94-9)
  12. Першиц А.И. ва бошқ. История первобытного общества ...С.135-137. (Pershits A.I. and Boshq. History of primitive society ... P.135-137.)
  13. Снесарев Г.П. Реликты доисламских Верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: «Наука», 1969. – С. 26-30.(Snesarev G.P. Relics of pre-Muslim Beliefs and Rituals of the Uzbeks of Khorezm. – М.: “Nauka”, 1969. – P. 26-30.)
  14. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 59-66.; Виноградов А.В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры // СЭ. – М., 1957. №1. – С. 25-45.; Итина М.И. Памятники первобытной культуры Верхнего Узбоя // Тр.ХАЭ. 1958. Т.II. – С. 258-309. (Tolstov S.P. Ancient Khorezm. – М.: Moscow State University, 1948. - P. 59-66.; Vinogradov A.V. On the issue of the southern connections of the Keltiminar culture // SE. - M., 1957. No. 1. - P. 25-45.; Itina M.I. Monuments of the primitive culture of Upper Uzboy // Tr. HAE. 1958. Vol. II. - P. 258-309.)
  15. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: “Фан”, 1964. – Б. 76-77. (Tolstov S.P. In Search of Ancient Khwarezm Culture. – Tashkent: "Fan", 1964. – pp. 76-77.)

16. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962. – С. 29, рис.8. (Tolstov S.P. Along the ancient deltas of Oxus and Jaxartes. – М.: IVL, 1962. – P. 29, Fig. 8.)
17. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы...С.134. (Vinogradov A.V. Ancient hunters and fishermen... P.134.)
18. Виноградов А.В. Кызылкумские ювелиры // Успехи среднеазиатской археологии. Вып.2. – Л.: “Наука”, 1972. – С. 43-45. (Vinogradov A.V. Kyzylkum jewelers // Advances in Central Asian archeology. Issue 2. – L.: “Nauka”, 1972. – P. 43-45.)
19. Виноградов А.В. Работы на могильнике Тумеккичиджик в Северной Туркмении // АО 1973. – М: “Наука”, 1974. – С. 500. (Vinogradov A.V. Works at the Tumekkichidzhik burial ground in Northern Turkmenistan // AO 1973. – М: “Nauka”, 1974. – P. 500.)

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадqiqот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000